



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



№8  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 552 sahifa,  
1-avgust, 2025-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
<b>Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna</b>	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
<b>Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li</b>	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
<b>Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi .....	30
<b>Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi</b>	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati .....	33
<b>Eshmuminova Oybarchin Botirovna</b>	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv .....	39
<b>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari .....	44
<b>Maydonova Saboxat Sadulloevna</b>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
<b>Mingbayeva Barno Ubaydullayevna</b>	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies .....	52
<b>Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna</b>	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari .....	55
<b>Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi</b>	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida .....	59
<b>Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna</b>	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni .....	65
<b>Umarova Feruzabonu Bobir qizi</b>	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
<b>Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich</b>	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....	72
<b>Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li</b>	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
<b>Boypolvonov Barot Djonqobulovich</b>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
<b>Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi</b>	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....	86
<b>Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li</b>	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri.....	90
<b>Jumanova Ug'loy Sodiqjonovna</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
<b>Koshayeva Sansabila Kamiljanovna</b>	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
<b>Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati.....	105
<b>Murodova Madina Karim qizi</b>	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari .....	108
<b>Ortiqov Mironshoh Sodiqovich</b>	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish.....	110
<b>Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna</b>	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
<b>Quronboyeva Mavluda Bahodirovna</b>	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika .....	120
<b>Sidiqova Yulduz Sobirovna</b>	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi .....	123
<b>Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</b>	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati .....	128
<b>Yusupov Ulug'bek Kadirovich</b>	
Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish .....	132
<b>F. Zaynabuddinov</b>	
Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза .....	135
<b>Киреева Эльвина Фларитовна</b>	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar .....	140
<b>Sanayev Gayrat Shermuxamedovich</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish .....	144
<b>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</b>	
Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'nalishlari .....	148
<b>Davletova A.</b>	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari .....	152
<b>G'aniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi</b>	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish .....	156
<b>Madmarova Gulchexra Qodirovna</b>	
O'lkashunoslik materiallarining oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish .....	160
<b>Mamajonov Mo'minjon</b>	
Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli .....	165
<b>Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi</b>	
Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy resurslarning pedagogik imkoniyatlari.....	169
<b>Muhiddinov Muhriddin Nuriddin o'g'li</b>	
Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati.....	173
<b>Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna</b>	
Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini, ularning o'yin ampluasini hisobga olgan holda aniqlash usullari .....	178
<b>Odilova Feruzaxon Valijon qizi</b>	
PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda IMEN texnologiyalaridan foydalanish.....	184
<b>Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi</b>	
Yoshlar o'rtasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari .....	188
<b>Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich</b>	
Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'limdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari .....	192
<b>Rasulova Nozigul Abdivahid qizi</b>	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish.....	196
<b>Sharofova Nilufar Ilhom qizi</b>	
Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida).....	200
<b>Tuxtasinova Munira Ibragimovna</b>	
Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	204
<b>Umarova Madinabonu Bahodir qizi</b>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari .....208 <a href="#">Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi</a>
	Nofillologlarni (filolog bo'lmaganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida zamonaviy ingliz tilining lingvometodik tahlili.....214 <a href="#">Zarina Itolmasova</a>
	Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar.....219 <a href="#">Hasanova Sumanbar Hamroqulovna</a>
	Разработка и внедрение виртуальных лабораторных работ по биохимии для студентов фармацевтических факультетов.....222 <a href="#">Мамадалиева Зарина</a>
	Abduqodir Shakuriyning ta'lim va tarbiya haqidagi umumiy qarash va g'oyalari: chuqur tahlil .....226 <a href="#">Ashurova Dilrabo Isroil qizi</a>
	Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi ..230 <a href="#">Jakbarova Zarifaxon Solijon qizi</a>
	Badiiy-estetik qobiliyat tuzilmasi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar .....233 <a href="#">G. S. Kaxarova</a>
	Umumta'lim maktablarida informatika o'qitish asosida ta'limni raqamlashtirishning metodologik asoslari...236 <a href="#">Mamajanov Rakhmatilla Yakubjanovich</a>
	Shaxsda ma'naviy intellektni rivojlanishiga qadriyatlar yo'nalganligining ta'siri.....240 <a href="#">Mirxoliqova Charos Xabibullayevna</a>
	O'qituvchilarning sun'iy intellekt bo'yicha kompetentligini rivojlantirishda metodik yondashuv .....244 <a href="#">Najmetdinova Nargiza Sayfetdinovna</a>
	Ismlarning ma'noliligi va ularni o'qitishda lingvopedagogik yondashuvlar .....252 <a href="#">Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich</a>
	Fitnes-aerobika mashqlaridan foydalangan holda sog'lomlashtirish mashg'ulotlari uslubiyati.....258 <a href="#">Shaxriddinova Laylo Nurxonovna</a>
	Raqamli ta'lim texnologiyalarining didaktik va "learning analytics"ning nazariy asoslari .....262 <a href="#">Sulaymanov Zulqaynar Rajabali o'g'li</a>
	Esse yozishni o'rgatishda zamonaviy metodlar.....268 <a href="#">Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</a>
	Iqtisodiy matnlar tarjimasini o'rgatishda raqamli simulyatsiya va virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....272 <a href="#">Xujanazarova Nozima Omonjonovna</a>
	Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy metodologik asoslari .....275 <a href="#">Axmedov Nodir Sadir o'g'li</a>
	Talaba-yoshlarda qo'shiq ijrochilik san'atini shakllantirishning zamonaviy pedagogik xususiyatlari: ta'lim islohotlari kontekstida yondashuv.....279 <a href="#">Begisbay Temirbayev</a>
	Xorijiy davlatlarda biologiya o'qituvchilarini tayyorlash tajribasi va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari.....283 <a href="#">Hayitov Abdirasul Eshdavlatovich</a>
	Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalariga umumiy fizika kursini o'qitishda virtual laboratoriyalarning ahamiyati.....286 <a href="#">Abdurakibov Akmal Abdugaparovich</a>
	Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi – "instruksional texnologiya" va sun'iy intellektga tayanib o'qitish metodologiyasi .....290 <a href="#">Abrorxo'ja Muminxo'jayev Muksumxodjayevich</a>
	Jaloliddin Rumiy fikrlarining hozirgi yoshlarga ta'siri .....296 <a href="#">Allayarov Doniyor Islom o'g'li</a>
	Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.....298 <a href="#">Aygul Aralbayevna Urazimbetova</a>
	Sud psixologik ekspertizasida travmatik tajriba (PTSD) fonida emotsional reaksiya va ko'rsatma sifati o'rtasidagi bog'liqlik.....301 <a href="#">Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li</a>
	Boshlang'ich ta'limda 4 "K" kompetensiyalarini rivojlantirishdagi muhim dolzarbliklar .....307 <a href="#">Idiyeva Gulchehra Izomovna</a>



Bikaryer oilalarda gender rollar integratsiyasi jarayonidagi psixologik omillar.....	311
<i>Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi</i>	
Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda sun'iy intellekt texnologiyalarida foydalanish muammolari va yechimlari.....	315
<i>Karshiyeva Dilnoza Utkirjonovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning metakognitiv ko'nikmalarini shakllantirishda reflektiv yondashuv.....	319
<i>Laylo Baxtiyor qizi Axmedova</i>	
1939-1945-yillarda O'zbekiston hududida qishloq xo'jaligidagi paxtachilik va oziq-ovqat muammolari.....	323
<i>Mutallibjonov Boburmirzo Muzaffarovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarining tajriba oxiri jismoniy tayyorgarligi darajasi dinamikasi.....	328
<i>Samadov Sardor Sodiqovich</i>	
O'zbekiston umumta'lim maktablarida mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish (CLIL) yondashuvining pedagogik va amaliy imkoniyatlari.....	335
<i>Tursunaliyeva Muattar Alisher qizi</i>	
O'rta maktab 11-sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirishda turli metodlarning o'rni.....	340
<i>Xamzayeva Ruxshona Abdusamadovna</i>	
Umumta'lim maktablardagi ingliz tili o'quv darsliklari tahlili.....	344
<i>Xiloldinova Zulayho</i>	
Ingliz klassik adabiyoti orqali talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari.....	348
<i>Ziyotov Farruh Saodilla o'g'li</i>	
XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida ingliz dramasi janri va uslub xususiyatlari.....	352
<i>Sherqulova Zuloyho Dilshod qizi</i>	
Биохимическая роль витаминов как кофакторов в метаболических процессах организма.....	356
<i>М. У. Джалилов</i>	
ESL/EFL (ingliz tili ikkinchi/chet til sifatida) kontekslarida lug'at boyligini rivojlantirishda loyiha asosidagi ta'lim (PBL – Project-Based Learning): tajribalar, natijalar va O'zbekiston sharoiti uchun tavsiyalar.....	359
<i>Masharibova Sayyora Ahmedovna</i>	
Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda kognitiv tezkorlikni rivojlantirishda multisensor yondashuvning samaradorligi.....	364
<i>Musratova Zilola</i>	
Yangi O'zbekiston sharoitida talabalarining tarixiy dunyoqarashini rivojlantirishda tarixiy ongning ahamiyati.....	367
<i>Shadibekova Dildora Fazildjanovna</i>	
O'zbekiston maktablarida ingliz tili darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: yuqori sinflarda eksperimental tadqiqot dizayni.....	371
<i>Ahmadjonova Diyora Dilshod qizi</i>	
Texnika oliy ta'lim muassasalarida umumiy kimyo kursini integrativ takomillashtirishning ilmiy metodik asoslari.....	376
<i>A. A. Xaydarov</i>	
Sport faoliyatida pedagogning o'rni.....	380
<i>Isoqov Nuriddin Halim o'g'li</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi yengil dizartriya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning lug'at boyligini tekshirish.....	384
<i>Mamatova Aziza Bo'riboevna, Xayrulloeva Marjona Tuychi qizi</i>	
Sharqiy mintaqalarda ajrimdan keyingi erkaklarning psixologik holati: an'anaviylik va zamonaviylik o'rtasida.....	387
<i>Nazokat Xudoyqulova</i>	
Modellashtirish jarayonida "Geogebra" matematik dasturining imkoniyatlari.....	393
<i>O. Halimov, M. Jo'raqulova</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik psixologik asoslari.....	398
<i>Ozoda Tolipova, Jumaboyeva Zarnigor</i>	
Shaxsda psixologik barqarorlikni rivojlantirish omillari.....	403
<i>Ozoda Tolipova</i>	
Oilaviy qo'llab-quvvatlovsiz sportchilarda yolg'izlik hissi va depressiv belgilarning paydo bo'lishi.....	407
<i>Qaimova Gulmira Uchqun qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarda oilaning o'rni.....	410
	<a href="#">Raxmatova Elmira Shavkat qizi</a>	
	Ajrashgan oilalarda voyaga yetmagan bolalarning psixologik moslashuv darajasi.....	413
	<a href="#">Ro'ziyeva Zilola Fayzulla qizi</a>	
	Rinolaliya nutq nuqsoniga ega bolalar bilan operatsiyadan oldingi davrda olib boriladigan logopedik ishlar.....	417
	<a href="#">Shokirova Shaxnoza Dilmurodovna, Nig'matova Movluda Asatulla qizi</a>	
	Erta turmush qurish muammosining ijtimoiy psixologik asoslari.....	421
	<a href="#">Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</a>	
	Pedagogik kompetentlikni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....	424
	<a href="#">G'ofurova Mohidil Sayfutdin qizi</a>	
	Integrativ yondashuv asosida v-vi sinflarni raqamli texnologiya vositasida o'qitishning pedagogik va psixologik mezonlari.....	427
	<a href="#">Abdug'afur Avliyoqulov</a>	
	Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining akmeologik pozitsiyasini rivojlantirish.....	432
	<a href="#">Aralova Dilafuz Dushaboy qizi</a>	
	Pedagogical Foundations for the Development of National Sports Within the Framework of Physical Education for Schoolchildren.....	436
	<a href="#">Aximbetov Bayrambay Kanatbayevich</a>	
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida zamonaviy integrativ metodlar asosida ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishning didaktik modeli.....	441
	<a href="#">Boltayeva Xolida</a>	
	O'smirlarda gender infekatsiya namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar.....	446
	<a href="#">Karimova Gulhumor Shodi qizi</a>	
	Talabalarni psixologik treninglar asosida ijtimoiylashtirish omillari.....	449
	<a href="#">Omonova Oygul Qodir qizi</a>	
	Talabalarda bashoratlash ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy pedagogik masalalari.....	454
	<a href="#">Rustamov Bektosh Ximmatovich</a>	
	Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy ijod qobiliyatlarini rivojlantirish tamoyillari.....	458
	<a href="#">Saddinov Alisher Atadjanovich</a>	
	How to Teach Vocabulary in EFL Classrooms.....	462
	<a href="#">Sarvinoz Mirzaliyeva</a>	
	Urologiyani o'qitishda interaktiv, multimedia, raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi.....	465
	<a href="#">Sayfetdinov Sanjarbek Ikramovich</a>	
	Taekvondochilarni yillik siklda tayyorlashni rejalashtirish xususiyatlari.....	469
	<a href="#">A. A. Nuritdinov</a>	
	Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda elektron korpuslar, KWIC, Word Sketch va Konkordans usullarini qo'llash.....	472
	<a href="#">Amonova Mahbuba Olimovna</a>	
	Innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida maktabgacha ta'limda integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish.....	476
	<a href="#">Asqarova Dilafuz</a>	
	Maktab ta'limida o'quvchilar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM) tizimlari bilan integratsiya.....	479
	<a href="#">Hamzayeva Kamola Norbek qizi, Duvlanova Mashhura Fahriddin qizi</a>	
	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining psixologik asoslari.....	483
	<a href="#">Ibragimov Aziz Tulkunovich</a>	
	Sensor afaziyada olib boriladigan logopedik ishlar mazmuni.....	487
	<a href="#">Otajonova Dilrabo Ramil qizi</a>	
	Oilada shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-pedagogik tahlili.....	491
	<a href="#">Palvannazirova Yulduz Hasanboy qizi</a>	
	Maktab o'quvchilari og'zaki nutqini metaforani o'qitish orqali rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (5–7-sinflar misolida).....	495
	<a href="#">Rustamova Dilfuzaxon Vohidjon qizi</a>	
	Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini baholash mezonlari va usullari.....	500
	<a href="#">Tojiboyeva Shohistaxon Komiljonovna</a>	



O'quvchilarning tanqidiy fikrlash salohiyatini aniqlashda PISA topshiriqlari asosida diagnostika metodikasi .....	504
<b>Jumayev Sanjar Soatmumin o'g'li</b>	
The Impact of Family, Environment and Early Childhood Development on Motivation .....	507
<b>Ayakulov Ulugbek Abdugaffor ugli</b>	
Talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari .....	511
<b>Hamdamova Mahzuna Tursunovna</b>	
Axborot xurujlari sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini shakllantirish metodikasi .....	516
<b>Tojiboyeva Shohistaxon Komiljonovna</b>	
Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni musiqaga qiziqtirishda pedagogik mahorat .....	520
<b>Adhamjonova Mubina Nosir qizi</b>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarini tayyorlashda lingvo-akme integratsiyasi afzalliklari .....	525
<b>Davlatova Firuza Kamolovna</b>	
Ta'lim jarayonida loyiha metodidan foydalanishning asosiy tamoyillari .....	531
<b>Iminova Muhayyo Aslanbekovna</b>	
Enhancing Creative Communicative Competence in Senior Secondary Students Through Problem-Based Learning .....	534
<b>Jumaniyozova Muxayyo Sapparboyevna</b>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kreativ yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish strategiyasini takomillashtirish .....	539
<b>Rajabova Zebiniso Anvarovna</b>	
Ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuvlar va ularning istiqbollari .....	543
<b>Raxmatov Uchkun Ergashevich</b>	



# BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA LINGVO- AKME INTEGRATSIYASI AFZALLIKLARI

Davlatova Firuza Kamolovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada akmeologik yondashuvning mazmuni va akmeolingvistikaning mohiyati taqqoslanib, lingvistik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan yagona konseptual mexanizm taklif etiladi. Lingvo-akme modeli CLIL, refleksiv amaliyot va shaxsiylashtirilgan ta'lim trayektoriyalarini uyg'unlashtirishga asoslanadi. Shuningdek, til bilishning C1 darajasini barqarorlashtirish, motivatsiya va metodik ijodkorlikni kuchaytirish hamda kasbiy o'sishning izchil siklini shakllantirish nazariy va amaliy jihatdan asoslab ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** akmeologiya; akmeolingvistika; lingvistik kompetensiya; CLIL; refleksiv amaliyot; self-efficacy; "oqim" (flow); shaxsiylashtirilgan ta'lim; mini-akme sertifikatlash.

**Abstract:** This article compares the content of the acmeological approach and the essence of acmelinguistics, proposing a unified conceptual mechanism aimed at developing linguistic competence. The "lingvo-acme" model is based on the integration of CLIL, reflective practice, and personalized learning trajectories. It substantiates the stabilization of C1 language proficiency, the enhancement of motivation and methodological creativity, as well as the formation of a consistent cycle of professional development.

**Key words:** acmeology; acmelinguistics; linguistic competence; CLIL; reflective practice; self-efficacy; flow; personalized learning; mini-acme certification.

**Аннотация:** В статье сопоставляются содержание акмеологического подхода и сущность акмелингвистики, предлагается единый концептуальный механизм, направленный на развитие лингвистической компетенции. Модель "лингво-акме" основывается на интеграции CLIL, рефлексивной практики и персонализированных образовательных траекторий. Обосновывается стабилизация уровня владения языком C1, рост мотивации и методического творчества, а также формирование последовательного цикла профессионального развития.

**Ключевые слова:** акмеология; акмелингвистика; лингвистическая компетенция; CLIL; рефлексивная практика; self-efficacy; поток (flow); персонализированное обучение; мини-акме сертификация.

## KIRISH

Akmeologik yondashuv insonning har qanday kasbiy faoliyatida barqaror yetuklikka erishishini umumiy psixologik-pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etadi. Akmeolingvistika esa ushbu falsafani chet tilini o'rganish va o'qitish jarayoniga moslashtirib, lingvistik kompetensiyani maksimal darajada rivojlantirish mexanizmlarini izlaydi. Akmeologik yondashuv insonning kasbiy va shaxsiy yetuklikka muntazam, bosqichma-bosqich yo'naltirilgan o'sishini ta'minlaydigan shart-omillarni aniqlashga qaratilgan bo'lsa, akmeolingvistika tilni o'rganish jarayonida talaba yoki o'qituvchining o'zini rivojlantirish qonuniyatlari, motivatsion omillari va mexanizmlarini tadqiq etib, "eng yuqori natijalarga erishish uchun tilni vosita sifatida" qo'llashni ko'zlaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A. Suboch o'z maqolasida biri makro-metodologiya, ikkinchisi esa o'sha metodologiyaning til o'rgatishdagi mikro-texnologiyasi ekanini ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Nazariy jihatdan ular bir-birini to'ldiradi: akmeologiya "nimaga erishamiz"ni, akmeolingvistika esa "bu maqsadga til orqali qanday erishamiz"ni izohlaydi.<sup>2</sup>

1 A.И. Субоч, Г.В. Мядзелиц Акмелингвистика – новая технология обучения иностранным языкам в неязыковом вузе // Сибирский государственный технологический университет, 4 с.

2 О.Б. Акимова Акмелингвистика как понятие педагогической акмеологии. РГПУ, Екатеринбург. С. 40

Bugungi kunda pedagogni tayyorlash jarayonida lingvistik, metodik, reflektiv va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarga yuqori talab qo'yilmoqda. Akmeologik yondashuv bu kompetensiyalarni yaxlit rivojlantirish tamoyillarini belgilasa, akmeologik yondashuv aynan lingvistik komponentni chuqurlashtiradigan aniq metodlarni (CLIL, PBL, "mini-akme" bosqichli sertifikatlash) taklif etadi. Natijada talabani bir vaqtning o'zida ham til, ham kasbiy yetuklikka olib boradigan ikki darajali mexanizm shakllanadi.

Quyidagi jadval akmeologik yondashuv va akmeologik yondashuvning alohida hamda integratsiyalashgan holda qo'llanganda yuzaga keladigan ta'sirini qiyosiy ravishda aks ettiradi. "++++" – eng yuqori samaradorlikni bildiradi.

Ko'rsatkichlar	Faqat akmeologiya	Faqat lingvistika	Integratsiya (sinergiya)
Pedagog motivatsiyasi	+++	++	++++
C1/C2 kompetensiya	+	+++	++++
Metodik ijodkorlik	++	++	++++
Barqaror professional o'sish	+++	+	++++

Mazkur sinergiya jadvali ikki konsepsiyani qo'shib qo'llash har bir indikator bo'yicha yaxlit va yuqori natijaga olib kelishini ko'rsatadi. Ikki nazariyaning kesishmasida lingvistik "cho'qqi"ni kasbiy "cho'qqi" bilan bog'laydigan yangi o'lchov, ya'ni "lingvo-akme" kategoriyasi shakllanadi.

Akmeologik yondashuvning obyekti – shaxs va uning kasbiy yetukligi bo'lsa, akmeologik yondashuvning obyekti esa tilni o'qitish jarayoni va shu jarayonning texnologiyasidir<sup>3</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Quyida ushbu integratsiyalashgan asosda shaxsiy rivojlanish, refleksiya, lingvistik bilimlar va motivatsion yondashuvni o'zida birlashtirgan amaliy metodikalar keltiriladi:

### 1. Individuallashtirilgan ta'lim modellari

**Enseignement individualisé / personnalisé** – talabani shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari, bilim darajasi va o'rganish uslubiga moslashtirilgan ta'lim jarayonidir. Ushbu modelning asosiy maqsadi – har bir talabani maksimal imkoniyatlarini ochib berishdir. Uning ustunligi moslashuvchanligida, ya'ni ta'lim tezligi va usuli talabani ehtiyojiga qarab o'zgaradi.

Bundan tashqari, har bir talabaga individual o'rganish maqsadlari belgilanadi hamda yutuqlari muntazam monitoring qilinadi. Texnologiyalar yordamida talabani bilim darajasi doimiy tahlil qilinib, kurs mazmuni va topshiriqlar unga moslashtiriladi.

Misol: *"Mission Linguistique Personnalisée"* ("Shaxsiy til topshirig'i sarguzashti"). Bunda har bir talaba o'zining til o'rganish sarguzashtini yaratadi va shu asosda ko'nikmalarini rivojlantiradi. Har bir talabaga ma'lum rol beriladi (dizayner, detektiv, yo'lboshchi, siyosatchi, gastronom). Til real kontekstda qo'llaniladi va talaba o'zini haqiqiy fransuz tilida "ijodkor" sifatida his qiladi.

Talabani profili so'rovnomaga yoki suhbat orqali aniqlanadi:

- qiziqishlari (kino, moda, texnologiya, sport va h.k.),
- til bilish darajasi (A1–C1),
- o'rganish uslubi (vizual, eshitish, kinestetik),
- professional yoki shaxsiy maqsadlari.

Individual topshiriq namunasi: *"Vous êtes journaliste de mode à Paris. Préparez une vidéo YouTube de 3 minutes pour présenter les tendances de cette saison."* (Siz Parijdagi moda jurnalistisiz. Shu mavsumdagi trendlar haqida 3 daqiqalik YouTube videosi tayyorlang).

Baholashda talaffuz, kreativlik, grammatika va so'z boyligi kabi shaxsiylashtirilgan mezonlar qo'llaniladi. Refleksiya bosqichida talaba o'z ishini tahlil qiladi va mentor bilan fikr almashadi (portfolioda saqlanadi).

Mos metodikalar:

- *Mini-akme* yondashuvi (individual diagnostika va bosqichli rivojlanish rejasi),
- reflektiv portfolio yuritish,

3 Ukraina N.V. "Akmeologicheskiy podhod k professionalno orientirovannomu obucheniyu inostrannomu yazyku studentov inzhenerno-texnologicheskogo profilya." Akmeologik yondashuvning til ta'limi bilan integratsiyasi. 2023.



- shaxsiy holatlarga moslashtirilgan ta'lim,
- guruh ichida rollarni muvofiqlashtirish.

## 2. Lingvistik refleksiya

Talabaniy til hodisalari, grammatik qurilmalar, leksik birliklar va ularning qo'llanilish konteksti ustida ongli tarzda fikr yuritish, tahlil qilish va baho berish ko'nikmasini shakllantiradi.

Asosiy metod:

- Xatolarni tahlil qilish – “Analyses d'erreurs”. Talabalar yozma yoki og'zaki matnlarda grammatik, leksik va stilistik xatolarni aniqlab, tuzatish orqali reflektiv yondashuvni rivojlantiradilar.

Topshiriq:

1. **Matn bilan tanishish.** Quyidagi matnda talaba fransuz tilida o'zining kundalik hayoti haqida yozgan. Ammo unda xatolar mavjud.

*Hier, je vais à l'école et je vois mon ami. Nous était en train de parler de notre week-end. Il me dit sur un film qu'il regarde la nuit dernière. C'était très intéressant et amusant.*

2. **Xatolarni aniqlash va tuzatish.** Jadvalda xato shakli, to'g'ri shakli hamda izoh keltiriladi.

3. **Refleksiya.** Talaba quyidagi savollarga yozma javob beradi:

- Eng ko'p qaysi turdagi xatolar qiyinchilik tug'dirdi?
- Qanday grammatik yoki leksik qoidani qayta esladigiz?
- Ushbu topshiriq sizga qanday foyda berdi?

Rivojlantiriladigan kompetensiyalar:

- lingvistik refleksiya,
- grammatik sezgirlik,
- o'z-o'zini tahlil qilish va tuzatish ko'nikmasi.

Qo'shimcha metodlar:

- metalingvistik kartochkalar va savol-javoblar (tahliliy yondashuvni kuchaytiradi),
- kontrastiv tahlil (native language va target language taqqoslash),
- lingvistik mini-proyektlar (talaba chet tilda mini-taqdimot tayyorlaydi).

## 3. Kommunikativ va madaniy kompetensiya

Kommunikativ va madaniy kompetensiya chet tilida muloqot jarayonida til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini anglash, madaniy kontekstga mos til birliklarini tanlay olish va boshqa madaniyat vakillari bilan hurmatli hamda samarali muloqot o'rnatish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan bir qator amaliy metodikalar mavjud.

### Madaniyatlararo rolli o'yin – “Rôle inversé”

Mazkur topshiriq “Rôle inversé” metodikasiga asoslanadi va talabalarda madaniyatlararo tafovutlarni anglash, empatiya, norverbal muloqot hamda kommunikativ moslashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalar o'zlarini boshqa madaniyat vakili o'rnida tasavvur qilib, rolli sahnani ijro etadilar.

#### 1. Voqelik ssenariysi

Siz Fransiyada fransuz tilida dars o'tayotgan o'zbek o'qituvchisiz. Dars jarayonida quyidagi nostandart holatlardan biri yuz berdi:

- o'quvchi sizni iltifot bilan uyiga taklif qildi,
- o'quvchi telefonni darsda oldi,
- o'quvchi sizga norasmiy tarzda murojaat qildi.

Siz ushbu vaziyatda qanday reaksiya bildirgan bo'ladingiz? Nima uchun?

## 2. Guruh vazifasi

Talabalar 2–3 kishilik guruhlariga bo'linib, tanlangan vaziyat asosida qisqa sahna (rolli o'yin) tayyorlaydi. Ular fransuz madaniyati kontekstida o'z pozitsiyalarini asoslab berishlari lozim.

## 3. Tahlil va muhokama

Boshqa guruhlar sahnani tomosha qilgach, muhokama bosqichi tashkil etiladi. Muhokama quyidagi savollar asosida olib boriladi:

- bu xatti-harakat sizning madaniyatingizda qanday qabul qilinadi?
- sizningcha, ushbu vaziyatda madaniyatlararo xatolik yuz berdimi?
- o'qituvchi sifatida qanday madaniy sezgirlik bilan yondashgan bo'lardingiz?

## 4. Refleksiya

Mashg'ulot yakunida har bir talaba qisqa esse yozadi: "Men ushbu topshiriq orqali qanday madaniyatlararo xulq-atvorni tushundim va qanday xulosa chiqardim?"

Rivojlantiriladigan kompetensiyalar:

- madaniyatlararo sezgirlik,
- empatiya va nuqtai nazar bilan fikrlash,
- kommunikativ strategiyalarni moslashtirish,
- norverbal muloqotga e'tibor.

### Madaniy ssenariylar tahlili

Madaniy tafovutlarni anglash va ularni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalar turli madaniyatdagi kundalik vaziyatlarni – to'y, ovqatlanish, muomala madaniyatini – qiyosiy tahlil qiladilar.

Topshiriq:

### 1. Matnlarni o'qish

*1-matn:* O'zbekiston to'yi (milliy urf-odatlar, ota-onalarning roli, sovg'a, mehmonlar soni).

*2-matn:* Fransiya to'yi (soddalik, individuallik, rasmiy atmosfera).

### 2. Jadvalni to'ldirish

Asos	O'zbekiston	Fransiya
Mehmonlar soni	300+	30–50
Sovg'alar	Pul, maishiy buyumlar	Ro'yxat asosida
Marosim uslubi	An'anaviy, keng miqyosda	Soddaroq

### 3. Tahliliy savollarga javob berish

Nega bu madaniy tafovutlar yuzaga kelgan deb o'ylaysiz?

Qaysi marosim siz uchun qulayroq va nima sababdan?

Agar siz ingliz to'yida mehmon bo'lsangiz, qanday xatti-harakatlar siz uchun kutilmagan bo'lishi mumkin?

### 4. Og'zaki chiqish

Talabalar 3–5 daqiqa davomida quyidagi mavzu asosida og'zaki chiqish tayyorlaydilar:

"Mening nazarimda madaniyatlararo farqlar..."

Rivojlantiriladigan kompetensiyalar:

- madaniy sezgirlik,
- og'zaki ifoda,
- tanqidiy tahlil va fikrlash.

### 4. Lingvo-akmeologik texnologiya

Lingvo-akmeologik texnologiya – chet tilini o'qitishda lingvistik bilimlar (grammatika, leksika, fonetika) va akmeologik tamoyillar (shaxsiy o'sish, kasbiy yetuklik, refleksiya, motivatsiya) integratsiyasiga asoslangan innovatsion o'quv texnologiyasidir.



Lingvo-akmeologik texnologiya asosida joriy etilgan metodik yangiliklar

### 1. "Erishilgan cho'qqilar" jurnali.

Har bir talaba o'z yutuq va kamchiliklarini qayd etib boradigan jurnal yuritadi. Bu jurnal nafaqat o'z-o'zini tahlil qilish vositasi, balki motivatsiya manbai ham bo'lib xizmat qiladi. Masalan, talaba shunday yozishi mumkin: "Hozir men 5 daqiqalik nutqni 10 ta xatolik bilan gapiryapman, semestr oxirida xatolar sonini 5 taga kamaytiraman." Bir hafta o'tgach, xatolar soni 8 taga tushganini ko'rsa, bu real o'sishni ko'rsatadi va unga dalda beradi. Shu tariqa talabalar o'z ichki suhbatini shakllantiradi, mas'uliyatni his qiladi va berilgan va'dasini bajarishga o'rganadi.

### 2. Kichik guruhlarda ijodiy topshiriqlar.

Har oy bitta ijodiy loyiha amalga oshiriladi. Birinchi oyda "Fransuz tili – drama orqali" mavzusida talabalar kichik pyesa yoki sketch tayyorlaydilar. Guruhlar (4–5 kishi) fransuz tilida ssenariy yozib, uni sahnalashtiradilar. Bu jarayon talabalarni original matn yozish, dialog tuzish va talaffuzni mashq qilishga majbur qiladi. Natijada lingvistik kompetensiya kengayadi.

Ikkinchi oyda "Mening o'qituvchilik portfelim" loyihasi bajariladi. Har bir talaba fransuz tilida bo'lajak o'qituvchi sifatida o'zini taqdim etadi: qisqacha biografiyasi, dars rejasi namunasi, yutuqlari va maqsadlarini yozadi. Ushbu portfel talabaga kelajakka nazar tashlash hamda tilni kasbiy kontekstda qo'llash imkonini beradi.

### 3. Muammo (case-study) usuli.

Darslarda "akmeologik vaziyatlar" kiritiladi. Masalan: "Siz – fransuz tili o'qituvchisiz. 10-sinfidagi darsda 2–3 nafar o'quvchi mutlaqo faol emas. Ularning qo'rquvini yengish va darsga jalb etish uchun nima qilasiz?" Ushbu vaziyat fransuz tilida muhokama qilinadi. Guruhlar yechim ishlab chiqib, taqdim etadilar. Keyinchalik o'qituvchi savol beradi: "Bunday vaziyatni hal etish uchun o'qituvchida qanday kompetensiyalar bo'lishi kerak va siz ularga ega bo'lish uchun nima qilasiz?" Bu savol refleksiyaning kuchaytiradi va akmeologik fikrlashni shakllantiradi.

Talabalar o'z kamchiliklarini tan olib (masalan, psixologik bilim yetishmasligi, nutq ravon emasligi, tezkor javob bera olmaslik), ularni bartaraf etish yo'llarini taklif qiladilar: ko'proq muloqot qilish, psixologiya adabiyotlarini o'qish, darsdan oldin nutq mashqi qilish va hokazo. Demak, case-study nafaqat til ko'nikmasini, balki kasbiy refleksiyaning ham rivojlaniradi.

### 4. "Til muhitida sho'ng'ish" (immersion).

Haftasiga bir kun (jami ikki para) to'liq chet tili muhitini yaratish kuni belgilanadi. Bu kunda talabalar darsda ham, tanaffusda ham faqat chet tilida suhbatlashishlari shart. O'qituvchilar ham faqat o'rganilayotgan tilda murojaat qiladilar. Dastlab bu qiyin bo'lishi mumkin, ammo keyinchalik talabalar ushbu kunni intiqlik bilan kutadilar. Ushbu amaliyot natijasida talabalar real bilingv muhitda bo'lishni his qiladilar, fransuzcha o'ylashni mashq qiladilar va tinglab tushunish hamda og'zaki nutq ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlaniradilar.

Integrativ-akmeologik texnologiyaning xususiyatlari:

- Tilni o'rganish boshqa fanlar va kompetensiyalarni rivojlantirish bilan uzviy bog'lanadi.
- Talabalar mantiqiy fikrlash, mustaqil izlanish va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini egalaydilar.
- Motivatsion muhit yaratiladi: talaba o'z natijalarini "kechagi o'zi" bilan taqqoslab, sog'lom raqobatda o'sadi.
- Guruhda jamoaviy ruh shakllanadi, talabalar bir-birining yutuqlaridan quvonadilar va birgalikda rivojlanadilar.
- Tilni o'rganish jarayoni ijobiy his-tuyg'ular bilan bog'lanadi, lingvistik kompetensiya mustahkamlanadi.
- Talabalar ijodiy faoliyatga jalb qilinadi: badiiy asar yozish, spektakl sahnalashtirish, o'quv qo'llanma yaratish orqali tilni ijodiy ifoda vositasi sifatida qabul qiladilar.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida keltirilgan misollar yordamida akmeologik yondashuv bo'lajak chet tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishini nazariy jihatdan asoslash mumkin. Lingvistik kompetensiyani akmeologik yondashuv asosida shakllantirishga qaratilgan amaliy metodikalar tahlili quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. **Individuallashtirilgan ta'lim modeli** zamonaviy pedagogik yondashuvlar ichida talabaning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari, bilim darajasi va o'zlashtirish sur'atini inobatga olgan holda moslashtirilgan ta'lim yo'lini yaratishga xizmat qiladi. Ushbu modelning markazida "har bir talaba – alohida shaxs" degan g'oya yotadi.
2. **Lingvistik refleksiya** til o'rganish jarayonida o'z til faoliyatini, grammatik va leksik tanlovlarini hamda nutqiy xatolarni ongli ravishda tahlil qilish va baholash jarayonidir. Bu yondashuv chet tilini o'zlashtirishda avtomatizmga emas, balki ongli faoliyatga tayanishni shakllantiradi. Shuningdek, u shaxsiy o'sish, o'z-o'zini baholash, tanqidiy tafakkur va kasbiy ongli rivojlanishning muhim komponenti bo'lib, bo'lajak chet tili o'qituvchisini nazariy, amaliy va tahliliy jihatdan yetuk mutaxassis sifatida shakllantiradi.
3. **Kommunikativ-madaniy kompetensiya** talabalarda empatiya, madaniyatlararo tolerantlik, o'z madaniyatini tushuntirish hamda boshqa madaniyatni anglash qobiliyatini shakllantiradi.
4. **Lingvo-akmeologik texnologiya** bo'lajak chet tili o'qituvchisini faqat bilim egasi emas, balki ijodkor, reflektiv, innovator va akme-taraqqiyotga intiluvchi kasbiy shaxs sifatida shakllantirishni ta'minlaydi. Ushbu texnologiya orqali til o'rgatish jarayoni maqsadli, izchil va shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, har bir talaba va o'qituvchi o'z rivojlanishining eng yuqori cho'qqisiga erishishga yo'naltiriladi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR


Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, globallashtirish jarayoni va ta'lim sohasidagi raqobatning kuchayishi sharoitida o'qituvchilar oldida turgan vazifalar tobora murakkablashib bormoqda. Endilikda ular faqat bilim beruvchi emas, balki talabalarning shaxsini shakllantiruvchi, ruhlantiruvchi va yo'naltiruvchi yetakchi bo'lishlari talab etiladi.

Bunday vazifani esa faqat doimiy ravishda o'z ustida ishlaydigan, yuksak maqsad sari intiladigan o'qituvchi ado eta oladi. Shunday o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida akmeologik yondashuvni ta'lim tizimiga chuqur integratsiya qilish zarur.

Demak, pedagog kadrlar tayyorlash tizimida akmeologik metod va texnologiyalarni joriy etish – kelajakka qo'yilgan to'g'ri sarmoya, sifatli ta'limning kafolati hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akimova O. B. Akmelingvistika kak ponyatie pedagogicheskoy akmeologii. RGPPIU, Yekaterinburg, s. 40.
2. Ukraintsev N. V. Akmeologicheskiy podkhod k professional'no-oriyentirovannomu obucheniyu inostrannomu yazyku studentov inzhenerno-tekhnologicheskogo profilya. Akmeologik yondashuvning til ta'limi bilan integratsiyasi. 2023.
3. Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books.
4. Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon.
5. Maslow, A. H. (1943). A Theory of Human Motivation. Psychological Review, 50(4), 370–396.
6. Suboch, A. I. (1994/2017). Akmelingvistika: til o'qitishdagi akmeologik yondashuv konsepsiyasi (rus tilidagi maqolalar to'plami va sharhlar).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.